



JINOYAT PROTSESSIDA VA JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA QIYNOQ HOLATLARINI OLDINI OLISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Sa'dulloyev Amirbek Dehqon o'gli

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Toshpo'latov Laziz Ahror o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14137925>

Annotatsiya: So'ngi yillarda mamlakatimizda inson manfaatlarini, huquqlari erkinligini himoya qilish, mustahkamlash borasida bir qator amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida jinoyat-ijroiya qonunchiligiga jinoyat-protsessi qonunchiligiga o'zgartirishlar kirtildi. Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklari yuqori cho'qiga chiqarildi. Lekin shunga qaramasdan shaxslarning erkinliklari cheklanga muassasalarda, jazoni ijro etish muassasalarida va tergov hibxonalarida saqlanayotgan shaxslar va mahkumlarni huquq va erkinliklarini kamsitish, ularni qiynash holatlarida muassasa xodilari ustidan bir qator shikoyatlar kelib tushayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsizlik, qadr-qimmat, qonunchilik.

Abstract: After gaining independence, the Republic of Uzbekistan, as a full-fledged member of the world community, declared its commitment to democracy and human rights in its Constitution, and recognized the priority of society and states to the interests of citizens. Our country has joined the human rights documents of the prestigious international organization, the United Nations, and has undertaken the effectiveness of their compliance.

Key words: Constitution, torture, violence, cruelty, dignity

Аннотация: После обретения независимости Республика Узбекистан как полноправный член мирового сообщества провозгласила в своей Конституции приверженность демократии и правам человека, признала приоритет общества и государства интересам граждан. Наша страна присоединилась к документам по правам человека ООН, авторитетной международной организации, и взяла на себя ответственность за их соблюдение. Ключевые слова: Конституция, пытки, насилие, жестокость, достоинство.

Mavzuni dolzarbligi: So'nggi yillarda butun dunyoda, shuningdek yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida inson huquqlari, uning erkinliklari, sha'ni qadr-qimmatini mujassam. Bugungi kunga kelib tergov



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

jarayonida, jazoni ijro etish muassasalarida ushlab turilgan shaxslar va jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitib qiynoqqa solish holatlariga qarshi bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlarning tub zamirida, inson manfaatlarini ulug'lash, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularni jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar qadr-qimmatini kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik huquq va erkinliklarini to'liq amalga oshira olishi, fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlash masalalari yotibdi. Buning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 26-moddasini keltirishimiz mumkin. unga binoan: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, unga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi". Shunday bo'lishiga qaramasdan bugungi kunga kelib ham respublikamizning ayrim tergov hibxonalari va jazoni ijro etish muassasalari xodimlari tomonidan qiynoqqa solish holatlari kuzatilayotganligi haqida asossiz ariza va shikoyatlar kelib tushmoqda. Bu kabi asossiz ayblovlar va tushunmovchiliklarning oldini olish maqsadida qiynoq va uning ko'rinishlari haqida batafsil tushuntirish maqsadga muvofiq.

Keling "qiynoq" nima ekanligiga to'xtalib o'tsak. "Qiynoq" tushunchasiga O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi **235-moddasi** quydagicha tariff berilgan "Qiynoqqa solish va boshqa shavfqatsiz g'ayriinsoniy yoki qadr qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash ya'ni ma'muriy qamoqqa olingan shaxsga shuningdek gumon qilinuvchiga ayblanuvchiga, sudlanuvchiga mahkumga, guvohga, jabrlanuvchiga jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilariga yoxud ularning yaqin qarindoshlariga ulardan yoki boshqa uchinchi shaxsdan biror-bir axborot olish, jinoyat sodir etganligida iqrorlik ko'rsatuvi olish maqsadida ularni sodir etilgan qilmish uchun o'zboshimchalik bilan jazolash yoxud biror bir harakatni sodir etishga majburlash maqsadida huquqni muhofaza qiliuvchi organning yoki boshqa davlat organining xodimi tomonidan yoxud dalolatchiligida yoki xabardorligida yoxud indamay bergan roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan qo'rqitish, urish do'pposlash, qiynash, azob berish yo'li bilan qonunga xilof boshqa harakatlar sodir etilgan qonunga xilof ruhiy, psixologik, jismoniy bosim o'tkazish yoki boshqacha tarzda bosim o'tkazish," . Ya'ni shaxslarning erkin harakatlanishi cheklangan paytda ularning huquq va erkiliklarini taminlash, ularga nibatan



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

jismoniy kuch, ruhiy va psixologik bosim o'tkazilish holatlarining oldini olishni nazarda tutadi. Yuqoridagi normada ushbu harakatlar davlat organi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan jinoyat protsessida, jazoni ijro etish muassasalarida kuzatilishi mumkinligi haqida belgilab o'tilgan hamda ushbu harakatlarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik borligi belgilab o'tilgan.

So'nggi yillarda inson huquqlari, erkinliklarini taminlash, inson kapitalini rivojlantirish, qiynoq holatlarini oldini olish yuzasidan bir qator qonun va qonun osti normativ hujjatlar qabul qilmoqda. Xususan, **2021-yil 26-iyunda** davlatimiz rahbari tomonidan „Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5163-son qarori imzolandi. Ushbu qarorning 2-bandida quyidagi joylarda qiynoqqa solishning oldini olish bo'yicha monitoring olib borish belgilangan: gaupvaxta, maxsus qabulxona, vaqtincha saqlash hibsonasi, tergov hibsonasi, jazoni ijro etish muassasasi, intizomiy qism, majburiy davolash muassasalarida. Oliy Majlining inson huquqlarini taminlash bo'yicha vakili Ombudsman tomonidan monitoring tekshiruv ishlari olib borilishi belgilangan. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan **2017-yil** 30-noyabrda qabul qilingan “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5268-son farmonining **2-bandida** “Noqonuniy uslublar bilan, shu jumladan jinoyat protsessi ishtirokchilari yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va jismoniy tazyiq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlarini qo'llagan holda olingan ma'lumotlardan jinoyat ishlari bo'yich dalil sifatida foydalanishga yo'l qo'yilmasligi” hamda ko'zga ko'rinishi mumkin bo'lgan qiynoq holatlarining oldini olish, ularga chek qo'yish yuzasidan davlatimiz rahbari tomonidan bir qator aniq vazifalar belgilab berilgan. Qiynoq holatlari uchrashi mumkin bo'lgan jazoni ijro etish muassasalari, gaupvaxta, maxsus qabulxonalar, vaqtincha saqlash hibsonalari, tergov hibsonalari, intizomiy qism, majburiy davolash muassasalarida qiynoqning oldini olish yuzasidan quyidagi ishlar tashkillashtirilgan. Xususan, **2021-yil 26-iyunda** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan „Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5163-son qarori ijrosini taminlash maqsadida ishchi monitoring guruhlar tashkil etilgan. Ushbu ishchi monitoring guruhlari tarkibiga Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz ekspertlari, tibbiyot



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

xodimlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari jalb qilingan bo'lib, a'zolikka qabul qilinuvchi shaxslarga kasbiy malaka va amaliy bilimlarga ega bo'lish, gender tengligi ta'minlanishini hisobga olish kabi qator talablar belgilab berilgan. Yuqoridagi qarorda ko'rsatib o'tilganidek, monitoring guruhlar tomonidan shaxslarning erkinliklari cheklanishi mumkin bo'lgan joylarni borib tekshirish va tekshiruv natijalari bo'yicha Oliy Majlisning Inson huquqlarini taminlash bo'yicha vakili Ombudsman tomonidan har yili 15-martga qadar Oliy Majlis palatalariga qiynoqqa solish va boshqa shavfqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi munosabat hamda jazo turlarini qo'llash holatlarining oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'ruzani taqdim etish va uni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'yilgan. Qaror ijrosini ta'minlash yuzasidan Ombudsman huzuridagi Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha Milliy prevantiv mexanizm doirasida faoliyat yurituvchi ekspert guruhi 2023-yil Toshkent viloyatidagi 14-son jazoni ijro etish kolniyasida monitoring ishlari olib borilgan. **Monitoring** tashrifida Oliy majlisning inson huquqlari bo'yich vakili (ombudaman) kotibyati Qiynoqqa solish holatlari va boshqa shafqatsiz g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llashning oldini olish bo'yicha faoliyatning qaydarajada tashkil etilayotganligi tekshirilgan. Ekspert a'zolari tomonidan kaloniyadagi qisqa muddatli va uzoq muddatli uchrashuv xonalari hamda telefon so'zlashuvlar xonalariidagi holatlar bilan tanishishgan ushbu xonalarning jihozlanishi xalqaro standart talablariga javob berishi ko'zdan kechirilgan Shuningdek, Mahkumlarni mehnatga jalb qilish holati va mehnatni tashkil qilishda mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilinayotganligi ham o'rganilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan zaruriy tavsiyalar berilgan.

Shuningdek, 2023-yilning 20-iyul kuni Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili Ombudsamanning monitoring ishchi guruhi Xorazm viloyatidagi 11-son tergov hibsxonasida qiynoq holatlarini aniqlash bo'yicha tekshiruv nazorat monitoring ishlarini olib borgan. Tekshiruv davomida tergov hibsxonasida mahkunlarga yaratilgan sharoitlar mahkumlarning yuvinish xonalari, ovqatlanish joylari uzoq va qisqa muddatli uchrashuv xonalari tekshirilgan. Shuningdek, mahkumlarning prokurorga va Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili Ombudsamanga murojaat qutilari tekshirilgan. Monitoring davomida tergov hibsxonasidan hech qanday kamchilik aniqlanmagan.





ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

Oxirgi 2023-yil hisobi shuni ko'rsatadiki, monitoring tekshiruvlari jarayonida jazoni ijro etish kaloniyalari va tergov hibisxonalarida hech qanday zo'ravonlik va qiynoqning shunga o'xshash turlari kuzatilmaganligini ko'rishimiz mumkin. So'ngi yillarda qiynoq holatlarini aniqlash va ularni oldini olish bo'yicha bir qator tashkilotlar tomonidan ishchi monitoring guruhlar tashkil qilingan. Qiynoq holatlarini aniqlash yuzasidan Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) tomonidan o'rganib chiqilib tahlil qilinganda, holatlar jazoni ijro etish muassasasida emas balki tergov jarayonida vaqtincha saqlash hibisxonalarida, ko'zga tashlanmoqda degan fikrga kelingan. Nimagaki deganda tergov, surushtiruv vaqtida ishda gumonlanayotgan shaxsdan malumotlar olish maqsadida shaxsga taziq o'tkazilishi, qadr-qimmatlarining kamsitilishi, mumkin. Yurtimizda inson huquqlarini taminlashga qaratilgan keng ko'lamdagi ishlar olib borilishiga qaramasdan shaxslarning erkiliklari cheklangan joydagi ushlab turilgan shaxslar tomonidan shikoyat xatlari kelib tushmoqda. Ishchi monitoring guruhi tomonidan borib qonuniy tartibda o'rganilganda ba'zi xodimlarda huquqiy bilimlarning yetishmasligi aniqlangan. Bunday holatni oldini olish uchun, xodimlarda huquqiy malakasini oshirish maqsadida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Milliy markazi tomonidan joriy yil boshida Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar va jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun qiynoqqa solishga qarshi kurashish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini o'tkazish jadvali, o'quv kurslari dasturi va moduli ishlab chiqildi. Milliy markaz matbuot xizmati ma'lumotiga ko'ra, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi tomonidan 2023 yil davomida «Qiynoqqa solishga qarshi kurashish: xalqaro amaliyot va milliy tajriba» mavzusida o'quv kurslarini o'tkazish rejasi ham tasdiqlandi. Rejaga muvofiq, onlayn va oflayn shakldagi o'quv kurslari Farg'ona viloyatida – 22-23 fevral, Buxoro viloyatida 29-30 mart, Toshkent viloyatida 8-19 aprel, Surxondaryo viloyatida 17-18 may, Andijon viloyatida 20-21 iyun, Namangan viloyatida 22-23-iyun kunlari o'tkazildi. Bunday seminar treyninglarni o'tkazishdan maqsad kelgusidagi qiynoq holatlarini oldini olish, fuqarolarni huquqlari, erkinliklarini kamsitmaslik maqsadida amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Етмишбоев М. Спорт агентлари фаолиятини лицензиялаш масалалари //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 6/С. – С. 381-386.
2. Ogli Y. M. M. The place and role of insurance in the activity of agents in the sports field //International Journal Of Law And Criminology. – 2023. – Т. 3. – №. 08. – С. 63-66.



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

3. Mirsharapov A.G. Indicators of physical and technical preparation of cadets playing mini-football and football at the mia academy //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2023. – Т. 4. – №. 03. – С. 131-135.
4. Mirsharapov A. G. Features of physical and technical training of cadets engaged in football and mini-football //Eurasian Journal of Sport Science. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 95-97.
5. Ахмедова С.Т. Об актуальных проблемах совершенствования административного законодательства Республики Узбекистан. – 2022.
6. Ахмедова С.Т. К Вопросу об освидетельствовании на состояние опьянения водителей транспортных средств //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2024. – Т. 2. – №. Special Issue 6. – С. 55-59.

